
“EXPO KOLLOR PRIN TEKS” FUTBOL JAMOASINING YANA BIR G‘ALABASI

Sportning futbol turi bo‘yicha 14 yoshli qizlar (U-14) o‘rtasida O‘zbekiston chempionati vodiy mintaqasi saralash bosqichi o‘tkazildi.

Ushbu musobaqada ishtirok etgan tumanimizning “EXPO KOLLOR PRIN TEKS” futbol jamoasi vodiy mintaqasi saralash bosqichi g‘olibligini qo‘lga kiritib Respublika bosqichida ishtirok etish imkoniyatini qo‘lga kiritdi.

Joriy yilning 5 iyul kuni Toshloq markaziy o‘yingohida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan sportchilarning munosib taqdirlash maqsadida Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Shuhratjon Musayevlar sportchilarga “EXPO KOLLOR PRIN TEKS” paxtachilik klasteri tomonidan 10 000 000 so‘m pul mukofotini topshirdilar.

Shu kuni “EXPO KOLLOR PRIN TEKS” jamoasi Andijon viloyatining “Andijanka” jamoasini qabul qilib yirik, 6:0 hisobida g‘alaba qozondilar.

2023-07-08 16:11:23